

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

UO‘K:339.924

ABDUVALIYEV ZAFAR MAXMUDOVICH

**INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOTNI SHAKLLANTIRISH VA
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish
uchun yozil gan**

D I S S E R T A T S I Y A

**Ilmiy rahbar: Maxsudov Begmatjon Yuldashaliyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent**

Toshkent – 2025 yil

MUNDARIJA

	Kirish	3
I-BOB	KORPORATIV HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	11
1.1.	Nomoliyaviy hisobotni shakllantirishning nazariy masalalari	11
1.2.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda korporativ hisobotni shakllantirish	21
1.3.	Integratsiyalashgan hisobot korporativ hisobotning takomillashtirilishini yangi bosqichi sifatida	31
	Birinchi bob bo‘yicha xulosa	38
II-BOB	INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-USLUBIY ASOSLARI	40
2.1.	Integratsiyalashgan hisobotning mazmuni, tamoyillari va elementlari	40
2.2.	Integratsiyalashgan hisobotga oid xorij tajribasi	48
2.3.	Integratsiyalashgan hisobotni shakllantirishning zamonaviy amaliyoti	55
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa	68
III-BOB	INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOTNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	70
3.1.	Integratsiyalashgan hisobotning shakllantirish uslubiyoti	70
3.2.	Integratsiyalashgan hisobotning shakllantirishning takomillashtirish yo‘nalishlari	82
3.3.	Integratsiyalashgan hisobot auditorlik tekshiruvini tashkil qilish va takomillashtirish	95
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa	106
	Xulosa	108
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	112
	Ilovalar	120

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida global raqobat kuchayib borishi bilan yetakchi tarmoqlar qatorida qurilish materiallari sanoatining ahamiyati oshib bormoqda. Bugungi ekologik murakkab sharoitda qurilish jarayonlariga nisbatan talabning kuchayishi mazkur sohani innovatsion jihatdan rivojlantirishning dolzarbligini ko'rsatmoqda. MarketsandMarketsni ta'kidlashicha, "jahon qurilish bozorining 2024-yildagi yillik o'sish sur'ati prognozi 6,0% ni tashkil qiladi va 13 572,4 milliard dollargacha o'sishi kutilmoqda. Bu sohaning gigantlari Bechtel Group (AQSh), Balfour Beatty (Buyuk Britaniya), Grupo ACS (Ispaniya), China State Construction Engineering Corporation limited (Xitoy), L&T Construction (Hindiston), PCL Construction Enterprises (Kanada) va Skanska Construction (Shvesiya) kompaniyalari hisoblanadi"¹. Bu esa qurilish materiallari sanoatini rivojlanish jarayonlarini bevosita aks ettiruvchi integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish va takomillashtirishning dolzarbligini namoyon etadi.

Jahondagi global integratsiya sharoitida turli xalqaro tashkilotlar (IIRC, GRI, KRMG, RWS) tomonidan yirik va yetakchi kompaniyalarning integratsiyalashgan hisobotini shakllantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Kompaniyalar hisobotlarida barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga olish, nomoliyaviy hisobotlarni shakllantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, integratsiyalashgan hisobotni tuzish algoritmini ishlab chiqish, integratsiyalashgan hisobotni ishlab chiqishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, qurilish materiallari sanoati korxonalarida integratsiyalashgan hisobotni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalari bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston qurilish materiallari sanoatida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga

¹<https://www.marketsandmarkets.com>

qaratilgan tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa mazkur tarmoqlarda istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqishda innovatsion mahsulotlarni yaratish, uning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish hamda sohada integratsiyalashgan hisobot tuzishni takomillashtirishni talab etadi. Globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida barqaror rivojlanish konsepsiyasining ishlab chiqilishi manfaatlari turlicha bo'lgan hisobotdan foydalanuvchilar sonining ko'payishiga olib kelmoqda. Hisobot tizimini rivojlantirishning ma'lum bir bosqichida nomoliyaviy hisobotni shakllantirish zarurati paydo bo'ldi va natijada turli xil nomoliyaviy hisobot standartlari (eng ko'p ishlatiladigani GRI) asosida barqaror rivojlanish hisoboti shakllantirila boshlandi. Shunga ko'ra, nomoliyaviy hisobotni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, integratsiyalashgan hisobotning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, integratsiyalashgan hisobotni tuzish reglamenti loyihasining asosiy elementlarini ishlab chiqish, integratsiyalashgan hisobotni joriy etishning amalga oshirish bosqichlarini taklif qilish, integratsiyalashgan fikrlashni qo'llashni zarurligini ilmiy asoslashga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-son "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy, axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Integratsiyalashgan hisobot va uning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha xorijlik olimlar T.Oshika, S.Adams, R.Simnet, N.N.Balashova, V.A.Melixov, M.A.Vaxrushina, M.V.Krasnova, M.V.Duz, O.V.Yefimova, S.V.Levicheva, N.V.Pislegina, N.A.Loxanova, N.V.Malinovskaya, Y.I.Sigidov, D.A.Nastenkov, O.V.Soloveva, O.A.Chernikova, A.N.Chernikov, N.N.Shamonin va boshqalar tadqiqot olib borgan².

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham buxgalteriya hisobining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish borasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, A.K.Ibragimov, B.A.Xasanov, S.U.Mexmonov, N.Q.Rizayev, K.B.Axmedjanov, R.O.Xolbekov, N.B.Abdusalomova, N.Sh.Xajimurodov buxgalteriya hisobining muayyan sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borgan³. Mazkur tadqiqot ishlarida ilgari surilgan nazariya va ilmiy takliflar mamlakatimizda buxgalteriya hisobini takomillashtirish uchun xizmat qilib kelmoqda hamda ushbu tadqiqot ishining ilmiy-uslubiy asosini tashkil etadi.

² Дузь М.В. Аудит интегрированной отчетности/ М.В. Друзь Экономика и управление: проблемы и решения. – 2014. - № 3 (27). – С. 85-88. Ефимова О.В. Парадигма устойчивого развития: проблемы информационно-аналитического обеспечения/О.В. Ефимова//Инновационное развитие экономики. – 2013. - № 1(13). – С. 22-31. Левичева С.В., Пислегина, Н.В.Актуальные проблемы подготовки корпоративной отчетности [Электронный ресурс] /С.В. Левичева, Н.В. Пислегина// Гуманитарные и социальные науки. - 2014. - № 2. - С. 747– 750. Лоханова Н.А.Состав показателей интегрированной корпоративной отчетности – возможный подход к структуризации [Электронный ресурс]/ Н.А. Лоханова // Электронный научный журнал «Современные проблемы науки и образования». – 2012. - № 6. – Режим доступа: <http://www.science-education.ru/ru/article/view?id=7801>. Малиновская Н. В. Интегрированная отчетность – инновационная модель корпоративной отчетности. Международный бухгалтерский учет. 2013. № 38. С. 12–18. Сигидов Ю.И., Настенко Д.А. Актуальные проблемы формирования консолидированной финансовой отчетности/Ю.И. Сигидов, Д.А. Настенко//Международный бухгалтерский учет. – 2013. - № 9 (255). – С. 2-13. Соловьева О.В. Тенденции развития корпоративной отчетности: интегрированная отчетность/О. В. Соловьева //Международный бухгалтерский учет. – 2013. - № 35 (281). – С. 2-15. Черников А.Н., Черникова О.А. Интегрированная отчетность – ценности взаимодействия в XXI веке/А.Н. Черников, О.А. Черникова// Поволжский торгово-экономический журнал. - 2013. - № 5 (33). - С. 77-82. Шамонин Н.Н. Интегрированная отчетность и ее аудит – современное состояние и направления развития /Н.Н. Шамонин// Международный бухгалтерский учет. - 2014. - № 41 (335). – С. 41-49.

³Ibragimov A.K. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, auditori va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini aniqlashni takomillashtirish: Iqt.fan.dokt.diss.avtoref. - T.: O'z.R.BMA. 2002; Zamonaviy boshqaruv hisobi. Darslik/ B.A.Xasanov, K.T.Nurmanov, R.B.Xasanova. –T.: “Lesson press” MCHJ nashriyoti, 2021 y.; “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi”. Darslik/ S.U. Mexmonov va D.Y.Ubaydullayev; Rizayev N.K. Intellectual mulk obyektlari hicobi va tahlilini tashkil etish metodologiyaci. Iqt.fanl.dokt. (DSc) diss.avtoref. - T.: TMI. 2019; Axmedjanov K.B. Xo'jalik yurituvchi su'bektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish: 08.00.07: i.f.n... diss. avtoreferati/ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. – T., 2016. -76 b., Xolbekov R.O. Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hisobini tashkil qilishning tamoyillari va uslubiyoti. Iqt.fanl.dokt.diss.avtoref. - T.: O'z.R.BMA. 2006; Abdusalomova N.B. Boshqaruv hisobi tizimida ichki nazorat va budjetlashtirish uslubiyatini takomillashtirish. Iqt.fan.dokt. (DSc) diss.avtoref. - T.: TMI. 2019; N.Sh.Xajimurodov. Moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta'minlash yo'nalishlari. –T.: Iqtisod va moliya, 2020 y. –№3 (135).

